ETYUDLAR VA MUSIQIY ETYUDLARGA MAVZU TANLASH: ICHKI HARAKAT VA SAHNAVIY RIVOJNI SHAKLLANTIRISH

Rasulov Umid O‘rolboyevich – *dotsent v.b*
umidrasulov469@gmail.com
O‘zDSMI, “Musiqali teatr san’ati”kafedrasi

ВЫБОР ТЕМЫ ДЛЯ ЭТЮДОВ И МУЗЫКАЛЬНЫХ ЭТЮДОВ: ФОРМИРОВАНИЕ ВНУТРЕННЕГО ДЕЙСТВИЯ И СЦЕНИЧЕСКОГО РАЗВИТИЯ

Расулов Умид Уролбоевич – *и.о. доцента*
кафедры "Искусство музыкального театра", ГИИКУз

CHOOSING TOPICS FOR ETUDES AND MUSICAL ETUDES: FORMING INNER ACTION AND STAGE DEVELOPMENT

Rasulov Umid Urolboyevich – *Acting Associate Professor*
Department of "Musical Theater Arts", UzSIAC

Tayanch cўзлар: etyud, musiqiy etyud, mavzu, sahnaviy rivoj, ichki harakat, ichki ziddiyat, konflikt, aktyorlik mahorati, psixofizik holat, ritm, musiqa, sahnaviy fikrlash, hayotiy kuzatuv.

Rezyume. Maqolada etyud va musiqiy etyudlar uchun mavzu tanlash jarayoni aktyorlik ta’limida ichki harakat va sahnaviy rivojni shakllantirishning muhim omili sifatida tahlil qilinadi. Tashqi syujet hamda insonning ichki ehtiyoj va ziddiyatlariga asoslangan ichki mavzu o‘rtasidagi farqlar ochib beriladi. Tadqiqotda hayotiy kuzatuvlarning amaliy ahamiyati, sahnaviy munosabatlarning o‘zgarish dinamikasi hamda musiqiy etyudlarda musiqa, ritm va psixofizik impulslarni uzviy bog‘lash metodikasi yoritilgan.

Ключевые слова: этюд, музыкальный этюд, тема, сценическое развитие, внутреннее действие, внутренний конфликт, актёрское мастерство, психофизическое состояние, ритм, музыка, сценическое мышление, жизненное наблюдение.

Резюме. В статье анализируется процесс выбора темы для этюдов и музыкальных этюдов как ключевой этап формирования внутреннего действия и сценического развития в актёрском образовании. Раскрывается различие между внешним сюжетом и внутренней темой, основанной на психологическом конфликте и потребностях персонажа. Особое внимание уделяется практической значимости жизненных наблюдений, динамике изменения сценических отношений, а также специфике интеграции музыки, ритма и психофизических импульсов в музыкальных этюдах.

Keywords: etude, musical etude, topic, stage development, inner action, inner conflict, acting skills, psychophysical state, rhythm, music, stage thinking, life observation.

Summary. The article analyzes the process of selecting topics for etudes and musical etudes as a crucial stage in developing inner action and stage progression in acting education. It highlights the distinction between external plot events and internal themes rooted in psychological conflict and character needs. Special focus is given to the practical value of life observations, the dynamics of changing stage relationships, and the specific methodology of integrating music, rhythm, and psychophysical impulses within musical etudes.

Aktyorlik san’atida sahnaviy jarayonning ishonarli va ta’sirchan bo‘lishi ko‘p jihatdan tanlangan materialning sifatiga bog‘liq. Aktyor qanchalik mahoratli bo‘lmasin, agar u ishlayotgan sahnaviy material ichki harakat va rivoj imkoniyatiga ega bo‘lmasa, ijro tashqi shakl doirasida qolib ketishi mumkin. Shuning uchun aktyorlik ta’limida etyudlar ustida ishlash jarayonini to‘g‘ri tashkil etish bilan bir qatorda, etyud uchun mavzuni to‘g‘ri tanlash ham muhim ahamiyat kasb etadi.

Etyud bilan ishlashni boshlagan talaba ko‘pincha “nimadir sodir bo‘layotgan” vaziyatni topishga harakat qiladi. Uning fikricha, sahnada odamlar kirib-chiqsa, gaplashsa, harakat qilsa va qandaydir hissiyot namoyon qilsa, etyud uchun material tayyor bo‘ladi. Ammo tashqi harakatning mavjudligi har doim ham sahnaviy jarayon borligini anglatmaydi. Ba’zi hollarda sahnada voqea bordek ko‘rinsa-da, ichki rivoj sezilmaydi. Bu esa, avvalo, mavzuning ichki harakat manbaiga ega emasligi bilan bog‘liq.

Aslida etyud mavzusi oddiy voqea yoki qiziqarli syujet emas. U insonni ichki jihatdan harakatga majbur qiladigan ziddiyat, ehtiyoj yoki muammo manbaidir. Agar mavzu aktyorni qaror qabul qilishga, tanlashga, kurashishga, kutishga yoki o‘zgarishga majbur qilmasa, sahnaviy jarayonning rivojlanishi qiyinlashadi. Shu nuqtai nazardan mavzu tanlashni etyud yaratishning

dastlabki va hal qiluvchi ijodiy bosqichlaridan biri sifatida baholash mumkin. Chunki keyingi harakat, munosabat, ritm, so‘z va musiqiy ifoda ko‘p jihatdan aynan shu tanlovga bog‘liq.

Talabalar bilan ishlash jarayonida kuzatiladigan eng keng tarqalgan kamchiliklardan biri — mavzuni tashqi syujet bilan adashtirishdir. “Ikki inson uchrashdi”, “kimdir ketmoqda”, “xat topildi”, “telefon bo‘ldi”, “eshik taqilladi” kabi holatlar hali mavzu emas. Ular sahnaviy vaziyat yoki tashqi voqeadir. Syujet asosan “nima sodir bo‘lyapti?” degan savolga javob beradi. Mavzu esa “inson bu voqea ichida nimani boshdan kechiryapti?” va “bu vaziyat uning ichki dunyosida qanday o‘zgarish tug‘diryapti?” degan savollarga javob beradi. Masalan, ikki insonning uchrashishi tashqi voqea bo‘lsa, ulardan birining ikkinchisiga ayta olmay turgan gapi mavzuga aylanishi mumkin. Kimdir ketmoqda — tashqi harakat, ammo uning ketish va qolish o‘rtasida ikkilanishi ichki ziddiyatdir. Xat topilishi — fakt, undagi haqiqatni bilishdan qo‘rqish esa ichki jarayondir. Demak, tashqi vaziyatning o‘zi sahnaviy materialning to‘liq mazmunini belgilamaydi. Uning ichida inson uchun muhim bo‘lgan ichki ehtiyoj va qarama-qarshilik paydo bo‘lsagina, mavzu sahnaviy harakat manbaiga aylanadi. Aktyorlik san’atida insonning harakati ko‘pincha tashqi sababdan emas, ichki ehtiyojdan kelib chiqadi. Shuning uchun talaba mavzu tanlayotganda voqeaning qanchalik qiziqarli ekaniga emas, ushbu voqea insonni qanday harakatga keltirishiga e’tibor qaratishi lozim.

Talabalar ko‘pincha kuchli etyud yaratish uchun katta va dramatik voqea kerak, deb o‘ylaydilar. Shu sababli janjal, xiyonat, ajralish, kasallik, o‘lim xabari, avariya kabi holatlarga murojaat qiladilar. Bunday mavzular, albatta, katta dramatik imkoniyatga ega bo‘lishi mumkin. Ammo tashqi dramatizmning o‘zi yaxshi etyud yaratish uchun yetarli emas.

Agar aktyor sahnaga tayyor xiyonat fakti bilan chiqsa va darhol baqirish, ayblash yoki yig‘lashga o‘tsa, tomoshabin voqeaning natijasini ko‘radi, lekin uning ichki paydo bo‘lish jarayonini his qilmasligi mumkin. Chunki aktyor uchun eng muhim bosqich — faktni qabul qilish, tushunish, baholash va unga munosabat shakllantirish jarayoni qisqarib ketadi. Aksincha, oddiy vaziyatdagi kuchli ichki ziddiyat katta sahnaviy imkoniyat berishi mumkin. Masalan, inson ketishga qaror qilgan, ammo ketolmayapti. Tashqi voqea juda sodda. Lekin uning ichida qolish va ketish o‘rtasida kuchli kurash mavjud. U narsalarini yig‘adi, to‘xtaydi, yana o‘ylaydi, eshikka qaraydi, qaroridan qaytishga harakat qiladi. Natijada eng oddiy harakat ham ichki mazmunga ega bo‘ladi. Shuning uchun sahnaviy ta’sir tashqi voqeaning kattaligiga emas, insonning shu voqea ichidagi ichki bosimi va munosabatiga bog‘liq. Kuchli etyud mavzusining asosida insonning ichki ziddiyati yotadi. Bu ziddiyat doimo ikki inson o‘rtasidagi ochiq to‘qnashuv shaklida bo‘lishi shart emas. U insonning o‘zida ham kechishi mumkin. Inson kechirmoqchi, lekin kechira olmayapti; ketmoqchi, lekin qolishni xohlayapti; haqiqatni aytmoqchi, lekin oqibatidan qo‘rqyapti; ishonmoqchi, ammo shubha uni ushlab turibdi; yaqinlashmoqchi, lekin rad etilishdan qo‘rqyapti. Ana shunday ichki qarama-qarshiliklar aktyorni harakatga keltiradi. Talaba mavzu tanlayotganda o‘zidan “Qahramon nimani xohlaydi?”, “Unga nima to‘sqinlik qilyapti?”, “U nimani yo‘qotishdan qo‘rqyapti?”, “U nimani ayta olmayapti?”, “U qanday qaror qabul qilishi kerak?” kabi savollarni so‘rashi muhim. Bu savollarga javob topilganda mavzuning ichki harakat manbai ham aniqlashadi. Natijada aktyor tayyor hissiyotni ko‘rsatishga emas, vaziyat ichida qaror qabul qilishga va yashashga harakat qiladi.

Etyud uchun eng samarali materiallardan biri hayotning o‘zi hisoblanadi. Talaba ba’zan sahnada qiziq ko‘rinadigan “teatrbop” voqea izlaydi. Bunday yondashuv esa sun’iylikka olib kelishi mumkin. Aslida oddiy hayotiy vaziyatlar ko‘pincha kuchli sahnaviy imkoniyatga ega.

Kimningdir uzoq sukut saqlashi, bir insonning boshqasiga qaray olmasligi, telefon qo‘ng‘irog‘ini kutish, kechikkan odamni kutish, muhim gapni ayta olmaslik, qaror qabul qilishda ikkilanish kabi holatlar etyud uchun qimmatli material bo‘la oladi. Chunki hayotdagi haqiqiy dramatizm ko‘pincha tashqi harakatda emas, ichki bosimda namoyon bo‘ladi. Shu sababli aktyorlik ta’limida talabaning kuzatuvchanligini rivojlantirish muhim. U insonlarning faqat tashqi harakatlarini emas, ichki holatning tana, nafas, qarash, pauza va harakat ritmi orqali qanday namoyon bo‘lishini ham kuzatishi kerak. Masalan, yolg‘on gapirayotgan insonning nafasi o‘zgarishi, kutayotgan odamning harakat ritmi buzilishi, qaror qabul qila olmayotgan insonning pauzalari uzayishi yoki kimgadir qarashdan qochishi aktyor uchun muhim kuzatuv materialidir.

Shaxsiy hayotiy tajriba ham mavzu tanlashda katta ahamiyatga ega. Aktyor o‘zi ichki jihatdan tushungan holatni organikroq his qilishi mumkin. Biroq shaxsiy tajribani sahnada aynan takrorlash shart emas. Muhimi, shaxsiy tajriba orqali inson holatining ichki mohiyatini anglash va uni badiiy sahnaviy jarayonga aylantirishdir.

To‘g‘ri tanlangan mavzuning asosiy belgilaridan biri — unda rivoj imkoniyati mavjudligidir. Sahna bir xil emotsional holatni uzoq vaqt ushlab tura olmaydi. Agar etyud boshidan oxirigacha bir xil kayfiyatda qolsa, unda harakat va rivoj susayadi. Talaba ba’zan “qayg‘u” mavzusida etyud yaratib, boshidan oxirigacha qayg‘uli holatni ko‘rsatadi. Yoki “qo‘rquv” mavzusida doimiy ravishda qo‘rqqan insonni tasvirlaydi. Bunday yondashuvda tashqi holat bor, ammo ichki jarayon yetarli darajada rivojlanmaydi. Kuchli etyudda munosabat o‘zgarib borishi kerak. Ishonch shubhaga, kutish umidsizlikka, yaqinlik uzoqlashishga, xotirjamlik xavotirga, ichki bosim esa qarorga aylanishi mumkin. Ana shu o‘zgarishlar sahnaviy rivojni ta’minlaydi. Shuning uchun talaba mavzu tanlayotganda “Etyud oxirida qahramon boshidagi inson bo‘lib qoladimi yoki uning munosabati o‘zgaradimi?” degan savolni o‘ziga berishi lozim. Agar mavzu hech qanday ichki o‘zgarishni talab qilmasa, uni qayta ishlash maqsadga muvofiq.

“Xiyonat” tashqi jihatdan kuchli dramatik mavzu bo‘lib ko‘rinishi mumkin. Lekin uning sahnaviy yechimi ichki jarayonga bog‘liq. Agar etyud xiyonat fakti allaqachon ma’lum bo‘lgan holatdan boshlansa, aktyor darhol jahl, baqiriq va ayblovga o‘tishi mumkin. Bunday holatda tashqi konflikt bor, ammo ichki rivoj qisqaradi. Aksincha, etyudni shubhaning paydo bo‘lishidan boshlash mumkin. Qahramon avval kichik bir o‘zgarishni sezadi. Oddiy gap, kutilmagan javob yoki partnyorning odatiy bo‘lmagan harakati unda shubha uyg‘otadi. U darhol xulosa qilmaydi, o‘zini ishontirishga harakat qiladi. Keyin yana bir belgi paydo bo‘ladi va shubha kuchayadi. Shu jarayonda qahramonning ichki munosabati o‘zgarib boradi: inkor ishonchsizlikka, ishonchsizlik esa haqiqatni qabul qilishga yaqinlashadi. Aktyorning nafasi, qarashi, harakati va pauzalari ham ana shu ichki o‘zgarish bilan birga shakllanadi. Bunday yondashuvda tomoshabin tayyor xiyonat faktini emas, balki shubhaning qanday qilib ichki haqiqatga aylanayotganini kuzatadi. Bu esa sahnaviy jarayonni ta’sirchan qiladi.

“Ketish yoki qolish” mavzusi ham tashqi jihatdan juda sodda, ammo ichki rivoj uchun qulay materialdir. Agar qahramon sahnaga tayyor qaror bilan kirsa, sahnaviy jarayon qisqaradi. Agar qaror hali qabul qilinmagan bo‘lsa, ichki kurash uchun imkoniyat paydo bo‘ladi. Qahramon narsalarini yig‘adi, keyin to‘xtaydi. Atrofga qaraydi, nimanidir eslaydi, eshik tomon yuradi, yana qaytib keladi. Uning har bir harakati qaror qabul qilish jarayoni bilan bog‘lanadi.

Bu yerda katta tashqi voqea talab qilinmaydi. Insonning ichki kurashi harakat uchun yetarli material beradi. Shu sababli mavzu tanlashda tashqi voqeadan ko‘ra, qahramonning ikki qarama-qarshi ehtiyoj o‘rtasida qolishi ko‘proq sahnaviy imkoniyat berishi mumkin.

Musiqiy etyudlarga mavzu tanlash oddiy etyudga nisbatan yanada nozik yondashuvni talab qiladi. Chunki bu yerda aktyorlik harakati bilan bir qatorda musiqa, ritm, temp, nafas va jismoniy impuls ham ishtirok etadi. Musiqa musiqiy etyudda tashqi bezak yoki oddiy fon vazifasini bajarmasligi kerak. U aktyorning ichki jarayoni bilan uzviy bog‘langandagina sahnaviy vazifasini to‘liq bajaradi. Shuning uchun musiqiy etyud yaratishda avval musiqani tanlab, keyin unga mavzu qidirishdan ko‘ra, dastlab mavzu va ichki jarayonni belgilash, keyin shu jarayonga mos musiqiy materialni tanlash maqsadga muvofiq. Masalan, “kutish” mavzusida musiqa dastlab erkin va keng ritmda boshlanishi, vaqt o‘tishi bilan ichki taranglikni kuchaytirishi mumkin. Aktyorning nafasi o‘zgaradi, harakatlari qisqaradi, pauzalari uzayadi, diqqati eshik yoki tashqi tovushlarga ko‘proq bog‘lanadi. Musiqa esa shu ichki bosimning davomiga aylanadi. Demak, musiqiy etyudda mavzu va musiqa bir-biridan alohida emas, yagona sahnaviy organizm sifatida rivojlanishi lozim.

Talabaga tayyor mavzu berishdan ko‘ra, uni mustaqil izlanishga yo‘naltirish maqsadga muvofiq. Buning uchun pedagog mavzuning tashqi tomonidan ko‘ra, uning ichki harakat manbaini aniqlashga yordam beruvchi savollardan foydalanishi mumkin. Talaba avvalo ushbu vaziyatda inson nimani xohlayotganini, unga nima to‘sqinlik qilayotganini va nimani yo‘qotishdan qo‘rqayotganini aniqlashi lozim. Shuningdek, qahramonning ayta olmayotgan gapi, ichki qarama-qarshiligi, qabul qilishi kerak bo‘lgan qarori va etyud davomida uning munosabati qanday o‘zgarishi haqida o‘ylashi kerak. Mavzuning harakat va rivoj tug‘dirishi, aktyorni tayyor emotsional holatni ko‘rsatishga emas, jarayonni boshdan kechirishga olib kelishi muhim. Musiqiy etyudda esa mavzu musiqa, ritm, nafas va psixofizik harakat bilan organik birlasha olishi kerak. Pedagog uchun mavzu tanlash jarayoni talabaning ijodiy fikrlashini shakllantirishning muhim vositalaridan biridir. Talaba tayyor syujetlarni ko‘chirib olishga emas, hayotdagi holatlarni kuzatish, ularning ichki mazmunini anglash va shu asosda sahnaviy material yaratishga o‘rganishi kerak.

Bunda pedagog talabaning mavzusini darhol rad etishdan ko‘ra, uni savollar orqali

chuqurlashtirishi samarali natija beradi. Masalan, talaba “ajralish” mavzusini tanlasa, pedagog undan ajralishning o‘zida nimasi qiziq ekanini, qahramon nimani yo‘qotishdan qo‘rqayotganini, qolishni xohlayaptimi yoki ketishni istayaptimi, ayta olmagan gapi bor-yo‘qligini so‘rashi mumkin. Shu savollar natijasida umumiy “ajralish” mavzusi aniq ichki mavzuga aylanadi. Masalan, inson ketishni xohlab turib, sevgan kishisini tashlab keta olmasligi yoki munosabat tugaganini qabul qila olmasligi kabi aniq ichki konflikt paydo bo‘ladi. Bunday yondashuv talabaning sahnaviy fikrlashini chuqurlashtiradi va uni tashqi syujetdan ichki jarayonga olib o‘tadi.

Etyud va musiqiy etyudlarga mavzu tanlash aktyorlik mahoratini o‘qitish jarayonidagi muhim ijodiy bosqichlardan biri hisoblanadi. Chunki keyingi sahnaviy jarayon — harakat, munosabat, ritm, so‘z, musiqa va ichki rivoj — ko‘p jihatdan tanlangan mavzuning tabiatiga bog‘liq. To‘g‘ri tanlangan mavzu shunchaki qiziqarli voqeani emas, insonni ichki jihatdan harakatga majbur qiladigan ziddiyatni o‘z ichiga oladi. U aktyorni qaror qabul qilishga, tanlashga, kurashishga, kutishga, shubhalanishga va o‘zgarishga olib keladi. Mavzu va syujetni bir-biridan farqlash bu jarayonda alohida ahamiyatga ega. “Ikki inson uchrashdi”, “kimdir ketmoqda”, “xat topildi” kabi holatlar tashqi vaziyatdir. Mavzu esa shu vaziyat ichidagi insonning ichki kurashi — ayta olmaslik, kechira olmaslik, yo‘qotishdan qo‘rqish, shubha, tanlov yoki qarorsizlikdir.

Mavzuning tashqi dramatizmga emas, ichki harakatga asoslanishi ham muhim. Katta janjal, xiyonat, avariya yoki og‘ir xabar avtomatik ravishda kuchli etyud yaratmaydi. Aksincha, oddiy kutish, sukut, ikkilanish yoki bir insonning boshqasiga qaray olmasligi katta sahnaviy ta’sirga ega bo‘lishi mumkin. Chunki sahnaviy kuch tashqi voqeaning kattaligida emas, insonning ichki bosimida namoyon bo‘ladi.

Etyud mavzusining yana bir muhim xususiyati — rivoj imkoniyati. Agar qahramon boshidan oxirigacha bir xil holatda qolsa, sahnaviy jarayon bir nuqtada to‘xtaydi. Shuning uchun mavzu ishonchning shubhaga, kutishning umidsizlikka, yaqinlikning uzoqlashishga yoki ichki bosimning qarorga aylanishi kabi o‘zgarishlarni keltirib chiqarishi lozim.

Musiqiy etyudlarda bu talab yanada murakkablashadi. Musiqa tashqi bezak emas, balki ichki harakatning davomi bo‘lishi kerak. Tanlangan mavzu aktyorning ichki ritmi, nafasi, harakat tempi va psixofizik holatining o‘zgarishiga imkoniyat bersa, musiqa ham shu jarayon bilan birga rivojlanadi. Aks holda musiqa sahnada alohida qatlam bo‘lib qolib, aktyorlik harakati bilan organik birlasha olmaydi.

Shu ma’noda etyud uchun mavzu tanlashni “nima haqida sahna qilamiz?” degan savol bilan cheklab bo‘lmaydi. Asosiy savol “bu mavzu insonning ichida nimani o‘zgartiradi?” degan savol bo‘lishi kerak. Talaba ana shu savolga javob topa olsa, oddiy hayotiy vaziyat ham mazmunli sahnaviy jarayonga aylanishi mumkin. Uning vazifasi tayyor dramatik holatni topish emas, balki hayotdagi holatlar ortida yashiringan insonning ichki harakatini ko‘ra bilishdir.

Demak, kuchli etyudning asosi tashqi voqeaning kattaligida emas, uning inson qalbida qanday jarayon tug‘dirishidadir. Mavzu aktyorni harakatga keltirsa, harakat rivojni tug‘diradi; rivoj esa sahnaviy hayotni paydo qiladi. Musiqiy etyudda esa shu jarayonga ritm, nafas va musiqa qo‘shilib, ichki harakatning yanada ta’sirchan sahnaviy ifodasiga aylanadi. Shu sababli aktyorlik ta’limida talabaga mavzu tanlashni o‘rgatish — unga shunchaki syujet topishni emas, insonni kuzatish, ichki ziddiyatni anglash va uni sahnaviy harakatga aylantirishni o‘rgatish demakdir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. E.Yorbekov Aktyorlik mahorati. – Toshkent: “Navro‘z” nashriyoti,2019-y.
2. N.Qobilov, Sh.Muhammadiyev. Aktyorning dirijyor bilan ishlashi – Toshkent: “Navro‘z” nashriyoti, 2020-y.
3. Qudratov, O. (2024). MUSIQALI TEATR GUL TOJI, ARSHINMOLCHI. Oriental Art and Culture, 5(5), 274-278.
4. Muhammadiyev, S. (2024). YAXLIT SAHNAVIY ASAR SAHNALASHTIRISH ISHLARI. Oriental Art and Culture, 5(5), 264-267.
5. Turg‘unboyev, F. (2024). AKTYORLIK MAHORATIDA XATTI-HARAKAT SHAKLLARI. Oriental Art and Culture, 5(5), 420-425.
6. Xushvaqtov, E. (2024). ZAMONAVIY SSENOGRAFIYA MAISHIY JANR IFODASI. *Interpretation and researches*, *2*(21), 93-97.
7. oglu Khusanov, B. N. MUSIQALI DRAMALARDA VOKAL TEXNIKASINING O’RNI.